Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

01 October – 14 November 2026

UDK 342

# IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

Mubina Jaloldin qizi Abdumutalibova*

*Farg‘ona davlat universiteti, Huquqshunoslik fakultet talabasi*

✉ abdumutalibovamubina71@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta’minlashning xalqaro-huquqiy hamda milliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning insonning munosib hayot kechirishi, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi uchun fundamental ahamiyati ochib beriladi. Xususan, mehnat qilish, adolatli mehnat sharoitlariga ega bo‘lish, ijtimoiy ta’minot, uy-joy, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniy hayotda ishtirok etish hamda ilmiy va ijodiy faoliyat erkinligi kabi huquqlarning mazmuni yoritiladi. Shuningdek, globallashuv, iqtisodiy tengsizlik, ishsizlik, kambag‘allik, ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi tafovutlar kabi zamonaviy muammolar ko‘rib chiqilib, ularni bartaraf etishda davlatning konstitutsiyaviy va institutsional majburiyatlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mazkur huquqlarning mustahkamlanishi hamda ularni amalga oshirishning huquqiy kafolatlari alohida tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar**

iqtisodiy huquqlar, ijtimoiy huquqlar, madaniy huquqlar, inson huquqlari, ijtimoiy davlat, mehnat huquqi, ta’lim huquqi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, madaniy meros, konstitutsiyaviy kafolatlar.

DOI: 10.5281/zenodo.23863265

## KIRISH

Inson huquqlari tizimida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar alohida o‘rin tutadi. Chunki insonning huquq va erkinliklarini faqat ularni qonun hujjatlarida e’tirof etish orqali ta’minlashning o‘zi yetarli emas. Shaxsning o‘z huquqlaridan amalda foydalanishi uchun munosib yashash sharoiti, sifatli ta’lim, tibbiy xizmat, mehnat qilish imkoniyati, ijtimoiy himoya va jamiyatning madaniy hayotida ishtirok etish imkoniyatlari yaratilgan bo‘lishi lozim. Shu jihatdan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar insonning kundalik hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan huquqlar majmuini tashkil etadi.

Mazkur huquqlarning xalqaro-huquqiy asoslari, avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktida o‘z ifodasini topgan. Xususan, Xalqaro pakt davlatlardan ushbu huquqlarni bosqichma-bosqich to‘liq amalga oshirish uchun mavjud resurslarining maksimal darajasidan foydalanishni talab qiladi. Pakt mehnat qilish, adolatli va qulay mehnat sharoitlari, ijtimoiy ta’minot, munosib turmush darajasi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va madaniy hayotda ishtirok etish huquqlarini alohida e’tirof etadi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham inson huquqlariga bo‘lgan bunday yondashuv izchil rivojlantirilgan. Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekiston huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida belgilangan. 13-moddada esa inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa

ajralmas huquqlari oliy qadriyat ekanligi mustahkamlangan. Mazkur konstitutsiyaviy qoidalar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash jarayoni yangi mazmun kasb etmoqda. Texnologik rivojlanish, mehnat bozorining o‘zgarishi, raqamlashtirish, migratsiya, iqtisodiy tengsizlik, kambag‘allik, ekologik muammolar va ta’lim hamda tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi tafovutlar mazkur huquqlarni ta’minlashga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sababli inson huquqlarini faqat deklarativ ravishda e’lon qilish emas, balki ularning real hayotda amalga oshirilishini ta’minlovchi samarali huquqiy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni yaratish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

## MUHOKAMA

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan huquqlar tizimidir. Iqtisodiy huquqlarning samarali amalga oshirilishi shaxsning mehnat qilish va daromad topish imkoniyatini kengaytirsa, ijtimoiy huquqlar uning munosib turmush sharoitini ta’minlashga xizmat qiladi. Madaniy huquqlar esa insonning jamiyatning ma’naviy va ilmiy hayotida faol ishtirok etishi, o‘z ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu sababli ushbu huquqlarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yagona insonparvar huquqiy tizimning o‘zaro bog‘liq elementlari sifatida ko‘rib chiqish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mazkur huquqlarni bevosita mustahkamlash orqali ijtimoiy davlat konsepsiyasining huquqiy asoslarini kuchaytirdi. Xususan, Konstitutsiyaning 41-moddasida har bir shaxsning mulkdor bo‘lish huquqi belgilangan hamda bank operatsiyalari, omonatlar va hisobvaraqlar sir tutilishi, meros huquqi qonun bilan kafolatlanishi nazarda tutilgan. Bu normalar iqtisodiy mustaqillik va mulkiy manfaatlarni huquqiy himoya qilishning konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi.

Iqtisodiy huquqlar tizimida mehnat qilish huquqi alohida ahamiyatga ega. Chunki mehnat nafaqat shaxsning daromad manbai, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei, kasbiy rivojlanishi va iqtisodiy mustaqilligini ta’minlovchi muhim omildir. Konstitutsiyaning 42-moddasida har kimning munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, kamsitishlarsiz adolatli haq olish hamda ishsizlikdan himoyalanish huquqi belgilangan. Shuningdek, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ish haqini kamaytirish taqiqlangan.

Mazkur norma xalqaro standartlar bilan hamohangdir. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 6-moddasi har bir insonning erkin tanlagan yoki qabul qilgan mehnati orqali o‘z hayotini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lish huquqini e’tirof etadi. Paktning 7-moddasida esa adolatli ish haqi, xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlari, teng imkoniyatlar, dam olish va mehnat ta’tili kabi kafolatlar nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy mehnat bozori oldida yangi muammolar paydo bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ayrim an’anaviy kasblarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishi bilan birga, yangi kasblar va yangi mehnat shakllarini yuzaga keltirmoqda. Masofaviy mehnat, platforma orqali bandlik va vaqtinchalik mehnat munosabatlari mehnat huquqini tartibga solishning yangi mexanizmlarini talab qilmoqda. Shu sababli davlat siyosatida nafaqat ish o‘rinlarini ko‘paytirish, balki aholining yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashishi, kasbiy qayta tayyorlanishi va raqamli ko‘nikmalarni egallashi uchun imkoniyatlar yaratish muhimdir. Ijtimoiy huquqlar doirasida ijtimoiy ta’minot muhim o‘rin egallaydi. Konstitutsiyaning 46-moddasiga muvofiq, har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega. Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa ijtimoiy yordam miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan kam bo‘lishi mumkin emas.

Mazkur norma ijtimoiy davlatning mohiyatini ifodalovchi muhim konstitutsiyaviy kafolatlardan biridir. Ijtimoiy davlatning vazifasi faqat aholiga moddiy yordam ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. Uning asosiy maqsadi ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand shaxslarning jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bu esa ijtimoiy yordamni insonning mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirishni talab etadi.

Konstitutsiyaning 47-moddasida har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi ham mustahkamlangan. Davlat uy-joy qurilishini rag‘batlantirishi va uy-joyga bo‘lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoit yaratishi belgilangan. Ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarni uy-joy bilan ta’minlash tartibi esa qonun bilan belgilanadi.

Sog‘liqni saqlash huquqi ham insonning munosib hayot kechirishi uchun fundamental ahamiyatga ega. Konstitutsiyaning 48-moddasida har kimning sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi kafolatlangan. Fuqarolarning tibbiy yordamning qonunda belgilangan kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olish huquqi ham nazarda tutilgan. Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, jumladan uning davlat va nodavlat shakllarini hamda tibbiy sug‘urtaning turli shakllarini rivojlantirish choralarini ko‘radi.

Xalqaro huquqda ham sog‘liqni saqlash huquqi insonning asosiy ijtimoiy huquqlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Xalqaro paktning 12-moddasida har bir insonning erishish mumkin bo‘lgan eng yuqori darajadagi jismoniy va ruhiy salomatlikka ega bo‘lish huquqi belgilangan. Ushbu norma davlatlardan kasalliklarning oldini olish, tibbiy xizmat va tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan choralarni ko‘rishni talab qiladi.

Ta’lim huquqi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Chunki sifatli ta’lim shaxsning nafaqat bilim olishiga, balki kelgusida munosib mehnat qilishiga, iqtisodiy mustaqillikka erishishiga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasida har kimning ta’lim olish huquqi belgilangan. Davlat uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishni ta’minlaydi, bepul umumiy o‘rta va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi belgilangan.

51-modda esa fuqarolarning davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olish huquqini mustahkamlaydi. Bu norma ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, iqtidorli va bilimga intiluvchi yoshlarning oliy ta’limga kirish imkoniyatlarini konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlashga xizmat qiladi.

Ta’lim huquqining xalqaro-huquqiy asoslari ham keng qamrovli. Xalqaro paktning 13-moddasi har bir insonning ta’lim olish huquqini e’tirof etib, ta’lim inson shaxsining to‘laqonli rivojlanishiga, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni kuchaytirishga xizmat qilishi lozimligini belgilaydi.

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar bilan bir qatorda madaniy huquqlar ham insonning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Madaniyat shaxsning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi, dunyoqarashi va ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi omillardan biridir. Shu sababli madaniy hayotda ishtirok etish imkoniyati insonning boshqa huquqlaridan mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan, biroq ular bilan uzviy bog‘liq huquq sifatida qaralishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlangan. Shuningdek, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy hamda texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilishi belgilangan.

Xalqaro paktning 15-moddasida ham har bir insonning madaniy hayotda ishtirok etish, ilmiy taraqqiyot va uning natijalaridan foydalanish hamda o‘zining ilmiy, adabiy yoki badiiy ijodidan kelib chiqadigan ma’naviy va moddiy manfaatlarini himoya qilish huquqi tan olingan. Shu nuqtayi nazardan, madaniy huquqlar faqat muzey, teatr yoki madaniy tadbirlardan foydalanish imkoniyati bilan cheklanmaydi; ular ilm-fan, ijod, intellektual mulk va jamiyatning ma’naviy taraqqiyotida ishtirok etish imkoniyatlarini ham qamrab oladi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 61-moddasida fuqarolarning tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosni asrab-avaylash majburiyati ham belgilangan. Shu bilan birga, bunday meros davlat tomonidan muhofaza qilinishi nazarda tutilgan. Demak, madaniy huquqlar faqat davlat tomonidan beriladigan imkoniyat emas, balki fuqarolarning madaniy merosni asrash bilan bog‘liq mas’uliyati bilan ham uzviy ravishda bog‘langan.

Mazkur huquqlarni ta’minlashda tenglik prinsipi ham muhim ahamiyatga ega. Huquqning qonunda mavjudligi uning barcha shaxslar uchun amalda bir xil darajada mavjudligini avtomatik ravishda anglatmaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, yashash hududi, nogironligi, yoshi yoki boshqa holatlar sababli ayrim guruhlar ta’lim,

tibbiyot, mehnat va madaniy xizmatlardan foydalanishda qo‘shimcha to‘siqlarga duch kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy davlat siyosatida formal tenglik bilan bir qatorda real imkoniyatlar tengligini ta’minlash masalasiga ham e’tibor qaratish zarur.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 57-moddasida mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilangan. Davlat ushbu toifalarning turmush sifatini oshirish va jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun shart-sharoit yaratishi nazarda tutilgan. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi obyekt hamda xizmatlardan foydalanishi uchun sharoit yaratish ham davlatning konstitutsiyaviy vazifalaridan biridir.

Shunday qilib, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash faqat bitta davlat organining vazifasi emas. Bu jarayonda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ta’lim va tibbiyot tashkilotlari hamda ish beruvchilar o‘z vakolatlari doirasida ishtirok etadi. Huquqlarni samarali ta’minlash uchun qonunchilikning mavjudligi bilan bir qatorda, uning ijrosi ustidan nazorat, huquqiy himoya vositalari va fuqarolarning o‘z huquqlarini bilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Konstitutsiyaning 54-moddasi alohida ahamiyatga ega. Unda insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi sifatida belgilangan. 55-moddada esa har bir shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi, shuningdek buzilgan huquqlarini vakolatli, mustaqil va xolis sud orqali tiklash imkoniyati kafolatlangan.

Demak, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning haqiqiy mazmuni faqat davlat tomonidan tegishli xizmatlarni taqdim etish bilangina belgilanmaydi. Ularning samaradorligi huquqiy kafolatlar, iqtisodiy imkoniyatlar, davlat siyosati, institutsional mexanizmlar va sud orqali himoya qilish imkoniyatlarining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Global chaqiriqlar sharoitida milliy huquq tizimi xalqaro standartlarni hisobga olgan holda, ayni paytda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va milliy xususiyatlariga mos ravishda rivojlantirilishi lozim.

## XULOSA

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar inson huquqlarining ajralmas va o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning mazmuni insonning munosib turmush kechirishi, iqtisodiy mustaqillikka ega bo‘lishi, ijtimoiy himoyalanishi, sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanishi hamda madaniy va ilmiy hayotda faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni qamrab oladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur huquqlarni ta’minlash bugungi kunda faqat milliy qonunchilik doirasidagi masala bo‘lib qolmay, xalqaro inson huquqlari tizimining ham muhim yo‘nalishini tashkil etadi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt davlatlarning ushbu huquqlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish bo‘yicha majburiyatlarini belgilab bergan.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi esa mazkur huquqlarning milliy huquqiy kafolatlarini sezilarli darajada kengaytirgan. Mulk huquqi, munosib mehnat, ijtimoiy ta’minot, uy-joy, sog‘liqni saqlash, qulay atrof-muhit, ta’lim, ilmiy va badiiy ijod hamda madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlarining Konstitutsiyada bevosita mustahkamlanishi inson manfaatlarini davlat faoliyatining markaziga qo‘yishning huquqiy ifodasidir.

Shu bilan birga, konstitutsiyaviy kafolatlarning mavjudligi ularning o‘z-o‘zidan to‘liq amalga oshishini anglatmaydi. Ushbu huquqlarning samaradorligi ularni ta’minlashning amaliy mexanizmlariga, davlat dasturlarining izchil amalga oshirilishiga, budjet va institutsional imkoniyatlarga, fuqarolarning huquqiy savodxonligiga hamda buzilgan huquqlarni tiklashning samarali vositalariga bog‘liq. Shu sababli kelgusida ijtimoiy himoyaning manzilliligini kuchaytirish, sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, munosib mehnat sharoitlarini ta’minlash, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv muhitni rivojlantirish va madaniy merosni muhofaza qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlashning eng muhim mezoni — ularning faqat qonunlarda e’tirof etilishi emas, balki har bir insonning kundalik hayotida real va teng imkoniyat sifatida namoyon bo‘lishidir. Shu ma’noda, inson manfaatlarini ustuvor qo‘ygan huquqiy va ijtimoiy davlat

barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. — Toshkent, 2023.
2. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights. United Nations, 1966.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasi, 1948.
4. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. — Toshkent, 2022.
5.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni.